

Boshlang'ich Sinf O'quvchilarining Nutq Madaniyatini Shakllantirishda Bolalar Adabiyotidan Foydalanish

Zeripbayeva Gulsara Jamaladdin qizi Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
Ellikqa'la pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi

Anonntatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyati shakllantirishda bolalar adabiyotidan foydalanish masalalari ko'rib chiqiladi.

Annotation: This article examines the issues of using children's literature in the formation of speech culture among primary school students.


Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы использования детской литературы в формировании культуры речи у учащихся начальных классов.

Kalit so'zlar: Nutq, bilim, tafakkur, kitobxonlik madaniyati, nutq madaniyati, yetuk notiq, "Ota o'g'iti", "Sariq devni minib".

Keywords: Speech, knowledge, thinking, reading culture, speech culture, accomplished speaker, "Ota o'g'iti", "Sariq devni minib".

Ключевые слова: Речь, знания, мышление, культура чтения, культура речи, зрелый оратор, «Ота ўғити», «Сарик девни миниб»

Prezidentimiz yoshlarning bilim olishida zaruriy shart-sharoitlarni yaratib bermoqda. Bu imkoniyatlardan o'quvchilar unumli foydalangan holda bilim olishga intilishi, mamlakatimizning rivojlanib, yuksalishi uchun zamin yaratadi. Kitob mutolaasi bilan shug'ullanish har bir insonni bilim, tafakkur va dunyoqarashini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini orttirish va kitobxonlikni targ'ib qilish ularning nutq madaniyatini shakllantirishga o'z fikrini boshqalarga namoyon qilishida vositachi bo'ladi. Hozirgi kunda keng turda ommalashgan kitobxonlik loyihalari sohani rivojlantirishga, jumladan mamlakatimizning bilim salohiyatining oshirishga xizmat qilmoqda. Fikrimizga dalil sifatda Prezidentimizning "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risidagi 4789-sonli qarori yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda." [5] Yuqoridagi qaror yuzasidan hozirda yoshlar o'rtasida har yili "Yosh kitobxon" ko'rik tanlovlari o'tkazilmoqda va bu an'anaga ham aylanib ulgurdi. Ushbu tanlovga o'quvchilar 3-sinfdan boshlab qatnashish imkoniyatiga ega. Tanlovning maqsadi, o'quvchilar, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilib o'quvchilarining salohiyatini, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish. Kitob mutolaasi bilan shug'ullanish o'quvchilarda nutq madaniyati hamda fikrlash darajasini yaxshilashga yordam beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari badiiy asar o'qish ko'nikmasi shakllanmagan paytida o'quvchilarni bolalar adabiyoti bilan tanishtirish ularda adabiyotga qiziqish uyg'otish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlanib borishiga xizmat qiladi. Taniqli adabiyotshunos olim Oxunjon Safarovning fikricha "Bolalar adabiyoti asoslarini bilmaydigan yoki chuqur egallamagan murabbiylar navqiron nasl qalbiga istiqloq g'ururini, Vatan mehrini solishga, go'zallikni his qilish tuyg'ularini parvarishlashga qodir bo'la olmaydi. Maktabgacha tarbiya muassasalarida ham, boshlang'ich sinflarda ham, hatto o'rta maktabning 5-7-sinflarida ham adabiyot darslari mundarijasini, asosan, bolalar adabiyoti namunalari tashkil etadi" [3:46] O'quvchilari nutqini rivojlantirishda bolalar adabiyotidan foydalanish alohida o'ringa ega bo'lib o'quvchilarni kelajakda yetuk notiq bo'lib yetishishlarida muhim o'rin tutadi. Avvalo o'qituvchi o'quvchilarga bolalar adabiyotini tanishtirishda qiziqarli, kreativ metodlardan foydalangan holda amalga oshirsa kutilgan natijaga beradi. O'quvchilar nutq madaniyatini shakllantirishda asosan nimalarga e'tibor qaratishi kerak? - degan savolga javob sifatida o'qituvchi birinchi navbatda o'z pedagogik mahoratidan foydalangan holda o'quvchilar bilan yaqin aloqada bo'lishi kerak, negaki, o'quvchilar bu yoshda injiqroq bo'lishadi va ko'proq e'tibor qaratishlarini xohlashadi. O'qituvchi buni anglab yetgan holda o'quvchilar bilan samimiy munosabatda bo'lishi kerak hamda nutq madaniyatini oshirishda o'quvchilarni ko'proq mutolaa bilan shug'ullanishga, ochiq muloqot qilishga yo'naltirish lozim. Kelajakda o'quvchilar qanday kasbni




egallashidan qat'iy nazar ularda, albatta, suhandonlik san'ati shakllangan bo'lishi kerak. Har bir soha o'z navbatida nutqiy madaniyatni ham talab etadi. 1-2-sinf o'quvchilari hali badiiy asar o'qiy olishmasada yosh darajasiga loyiq keladigan bo'lgan ertaklar, maqollar o'qishlarida yordamlashishimiz keyinchalik o'zlari mustaqil ravishda badiiy asarlarni bemalol o'qishlarida katta yordam beradi. Bolalar adabiyoti ko'proq ertak, she'r va maqollarni o'z ichiga qamrab olgan o'rganilish jihatidan bolalarning qabul qilish darajasiga to'laqonli to'g'ri keladi hamda bolalar adabiyoti namunalari o'quvchilarni o'z fikrlarini mustaqil bayon qilishida yordam beradi.

“O'zbek bolalar adabiyoti XX asrning 20-30-yillarida shakllanib, umum adabiyotning alohida tarmog'i sifatida maxsus yo'nalish kasb etdi. Bunda A. Avloniy, H. H. Niyoziy, Shokir Sulaymon, G'ayraty, D. Oppoqova, G'ulom Zafariy, Elbek, Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Ilyos Muslim, Zafar Diyor, Sulton Jo'ra, Qudrat Hikmat, Quddus Muhammadiy, Shukur Sa'dulla, Hakim Nazir, Po'lat Mo'min kabi yozuvchi-shoirilar o'zbek bolalar she'riyati va nasrini, dramaturgiyasi hamda publitsistikasini shakl va mazmun, badiiylik va obrazlilik jihatdan barqarorlashuviga katta hissa qo'shdilar.” [1:7] Bolalar adabiyotining yorqin namoyondalaridan biri bo'lgan Anvar Obidjonning, she'rlari, bolalarning nutq madaniyatni rivojlantirishda alohida o'ringa ega. Adib bolalarning eng sevimli yozuvchisi bo'lib, uning she'rlari o'quvchining ongiga ijobiy ta'sir qiladi, chunki uning barcha she'rlari o'ziga xosligi yozilishi jihatdan osonligi bilan o'quvchilarning qiziqishlariga sabab bo'lib kelmoqda. Shoirning she'rlarini o'qigan har bir o'quvchi o'zi uchun bir olamni kashf eta oladi. Shuningdek, kelajakda yetuk nutqiy madaniyat sohibi sifatida shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Shoirning quyida keltirilgan she'riy pandnomasida o'quvchilarni o'zligini anglash, vatanparvarlik hissinu uyg'otishga yo'naltirilgan she'rini ko'rib chiqamiz.

Ota o'giti

“Ey o'quvchi bilki har so'z
Nondek aziz, nondek uvol.
Til boyligin bog' deb bilsak,
Har bitta so'z - bitta nihol.
Biron so'zni isrof qilmoq
Bir ko'chatni yulmoqlikdir.
Bora-bora, otameros –
Bog'ni xarob qilmoklikdir.
E bolam, yot yurtga borsang,
Ne atalur eling, derlar.
Qay millatning vakilisan,
Bormi ona tiling, derlar.
Shunda, mening qutlug' tilim –
Navoiyning she'ri, degil.
Yurtim - Ulug'beku Bobur,
Amir Temur yeri, degil.
Ayt g'urur-la Beruniylar,
Farg'oniylar ajdodim, deb.
Koshg'ariylar darsin tinglab,
O'tkirlangan savodim, deb.
Maqtanma hech qimmat kiyim,
Oltinlaru qasring bilan.
Faxr et doim qudratli yurt,
Boy til, nasab-nasling bilan.
Obro'yingni baland tutmoq,
E bolam, o'z qo'lingdadir.
Sening olamdagi narxing
Vatan, millat, tilingdadir [2:27]



Ushbu she'rni yod olgan har bir o'quvchining fikrlashi keng, mantiqiy tafakkuri rivojlangan har doim to'g'ri xulosa chiqaradigan nutq ko'nikmasi rivojlangan yetuk shaxs bo'lib voyaga yetadi. Adabiyot so'zi o'z ichiga umumiylikni qamrab oladi. Bolalar adabiyoti ham bundan mustasno emas. O'quvchilar she'r yod olish orqali eslab qolish, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirib borishadi. Ayniqsa bolalar adabiyoti o'quvchilarni ham ma'naviy jihatdan ham ruhiy jihatdan rivojlanishida vosita bo'lib o'quvchilarni nutq madaniyatini oshirishga va kreativ fikrlash doirasini kengaytirishda o'ziga xos uslubda yozilgan janrlardan biri bo'lib hisoblanadi. O'quvchilar ertaklarni yoki she'rlarni ovozi chiqarib o'qisa o'quvchilarning nutqi o'sib boradi, intellektual xususiyatlari shakllanib, komil shaxs bo'lib voyaga yetishishlarida muhim hisoblanadi. Bolalar adabiyoti o'quvchilarning yosh xususiyatlari inobatga olingan holda tushunilish jihatdan bolalarning esida saqlab qolishi hamda nutqiy barkamolikka erishishlarida yordam beradi. Bolalar adabiyot rivojiga ulkan hissa qo'shgan yana bir adibimiz Xudoyberdi To'xtaboyevni ham o'rni beqiyosdir. Hammamiz bilamizki, Xudoyberdi To'xtaboyev bolalarning eng sevimli yozuvchisi fantastik va didektiv asarlar muallifi. O'quvchilar ko'proq sarguzashtga boy qissalarni zavqlanib o'qishadi. Ular o'zi istagan narsasini tez ilg'ab olishadi va uni hayotida qo'llay boshlashadi. Bolalarning eng sevimli kitoblari ro'yxatidan o'rin olgan "Sariq devni minib" asari ham sarguzashlarga boy bo'lib o'quvchilar tomonidan ko'p tinglangan, ko'rilgan ham sevib o'qilgan asarlardan biri, asar doirasida filmlar, multafilmlar suratga olingan.

"Sariq devni minib kitobi 1971-yilda Italiyada Rim shahrida bo'lib o'tgan xalqaro bolalar adabiyoti forumida yozuvchiga shon-sharaf keltirdi, kitob Janie Rodari tomonidan eng yuqori baholandi. [4] Boshlang'ich sinf o'quvchilari asar o'qish ko'nikmasini shakllantirishda, o'quvchilar ushbu asarni televideniye orqali tanishga ulgurishgan. Bu asar bolalar uchun juda qiziqarli bo'lib, har bir bola hayotida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan voqealar asosida ochib berilgan. Asar o'quvchilarning o'z his kechinmalarini aniq bayon qilishlari uchun imkoniyat yaratib beradi.

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy madaniyatni oshirishda bolalar adabiyoti katta ahamiyatiga ega bo'lib, o'quvchilar kitob mutolaa qilish orqali nutqiy madaniyatni shakllanib, kelajakda yetuk notiq bo'lib yetishishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bashorat Jamilova. O'zbek bolalar adabiyoti o'quv qo'llanma. Toshkent – 2019 7b.
2. M. Umarova va boshqalar. O'qish kitobi. 3 –sinf uchun darslik T: 2019. 27 b.
3. Safarov O. Oliy o'quv yurtida "Bolalar adabiyoti" fani muammolari. // Til va adabiyot ta'limi, 1994, 2-3-s., 4-b.
4. Xudoyberdi To'xtaboyev. Minglab dunyolarni o'zlashtirdim.// Darakchi, № 14, 04/02/2009
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob maxsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida" gi PF-4789-son Farmoyishi O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami, 2017 yil, 38-son, 1029-modda.